



TIQXMMI  
TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGI MEKHANIZATSİYASI  
MUHANDISLIGI INSTITUTI  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



FAN:

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA

MAVZU  
**01**

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA  
FANIGA KIRISH



Isayev Sabirjan  
Xusanbayevich



Irrigatsiya va melioratsiya  
kafedrasi professori, q.x.f.d.



**REJA:**

**Melioratsiya nima?**

**Irrigatsiya va melioratsiyaning turlari**

**Irrigatsiya va melioratsiyaning vazifalari**

## **Asosiy adabiyotlar ro‘yxati**

1. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Mamataliyev A.B. “Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi”. Toshkent. Sharq. 2008. -408 bet.
2. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Lapasov X.O. “Qishloq xo‘jalik gidrotexnik melioratsiyasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2014. -233 bet.
3. Raximbayev F.M., Xamidov M.X. “Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi”. Tashkent. Mehnat. 1996. - 328 bet.
4. Kostyakov A.N. Osnovi melioratsiya, M.: Selxozgiz, 1960 g.-604 str.
5. Markov YE.S. Selskoxozyaystvenniye gidrotexnicheskiye melioratsii, M.: Kolos, 1981 g. - 376 str.

## **Qo‘sishimcha adabiyotlar ro‘yxati**

1. Yerxov N.S., Ilin N.I., Misenev V.S. Melioratsiya zemel, - M.: Agropromizdat, 1991. - 319 str.
2. Irrigatsiya Uzbekistana. I-IV tomi.

## **Internet materiallari**

1. <http://tiiame.uz/uz/page/ilmiy-jurnallar>, (Irrigatsiya va melioratsiya jurnalı).
2. [http://qxjurnal.uz/load/jurnal\\_2017/agro\\_ilm\\_2017](http://qxjurnal.uz/load/jurnal_2017/agro_ilm_2017), (Agro ilm jurnalı).
3. [https://elibrary.ru/title\\_about.asp?id=54940](https://elibrary.ru/title_about.asp?id=54940), (Jurnal Voprosi melioratsiya)



*Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir.*

Otabek Xasanovning “Liderlar” kitobining 119 betida shunday so‘zlar yozilgan, *Yaponiya davlatida maktabning kiraverishida ushbu maktabda Bosh vazir, vazir tahsil olgan, shuning uchun ushbu maktabning har bir jihozlarini asrash va avaylashimiz lozim.*




“*Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo soadat, yo falokat masalasidir*” deya yozgan edi ma’rifatparvar alloma **Abdulla Avloniy**



# IQLIM VA O'ZBEKISTON

## Iqlim o'zgarishi nima?



## Sohalar bo'yicha chiqindilar manbai



EMISSIYALAR qaysi davlatdan bolishidan qat'iy nazar!

Ular butun sayyora uchun UMUMIYDIR!

BARCHA mamlakatlar har qanday emissiyadan jabr chekayapti!

## Keyin nima boladi?

### AGAR:



### NATIJADA:



## Nima qilmoq kerak?

### Iqlim bo'yicha Parij kelishuviga "daditroq" majburiyatlarni olish

Bu tarmoqlarni past uglerodli rivojlanish yo'lidan borishga "majbur qiladi":



# VIRTUAL SUV

## Bitta nonda necha litr suv bor?

Endi katakchan ni belgilang va ushbu sahifani o'qib chiqqandan so'ng taxminlaringizni tekshiring

**Virtual suv - bu mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflanishi kerak bo'lgan barcha suvlarning yig'indisidir.**

MISOL:



	<b>non</b>	2074 l	
	<b>1 kg</b>	16 000 l	
	<b>1 kg</b>	4 800 l	
	<b>1 kg</b>	3900 l	
	<b>1 kg</b>	1 300 l	




OROL DENGIZI. OLDIN



OROL DENGIZI. HOZIR

## MAMLAQATDA SUV XARAJATLARINI QANDAY OZAYTIRISH MUMKIN?

- 1**  
Tomchilatib sug'orish - ha, ariqlar orqali sug'orish - yo'q



- Tomchilatib yoki boshqa aniq sug'orishga majburiy o'tish.



- Maydon yoki mahsulot birligiga suvdan foydalansh kvotalari bosqichma-bosqich joriy etilishi



- Yer osti suvidan sug'orish - tabiat uchun falokat

- 3**  
Qishloq xo'jaligidagi suv uchun real to'lovni bosqichma-bosqich joriy etish.  
Tekin resurs har doim birinchini bo'lib tugaydi




- Qishloq xo'jaligidagi suv uchun real to'lovni bosqichma-bosqich joriy etish.  
Tekin resurs har doim birinchini bo'lib tugaydi



- Ko'proq qurg' oqchilikka chidamlvi va kam suv iste'mol qiladigan ekinlarni yetishtirish


- 6**  
Xo'jalik darajasida suvdan foydalansh madaniyatini oshirish.
- 7**  
Har doim tupoqni o'simlik qoldiqlari bilan yoping




- Har doim tupoqni o'simlik qoldiqlari bilan yoping

- Quvayt**  
**O'zbekiston**  
**Turkmaniston**  
**Tojikiston**  
**Armaniston**  
**Ozarbayjon**


- Qirg'iziston**  
**Qozog'iston**  
**Moldova**  
**Rossiya**  
**Gruziya**  
**Kongo**



# O‘zbekiston Respublikasi xududlarga bo‘linishi



Tuproqlarning suv-havo va tuz rejimlarini paydo bo‘lishi, dinamikasi, ularni boshqarish uslublari, yerlarning tuproq, gidrogeologik va boshqa tabiiy sharoitlarini yaxshilash, gidromeliorativ tizimlarni loyixalash, qurish, ishlatish, rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda yangi, zamonaviy, ilg‘or sug‘orish texnika va texnologiyalarini qo‘llash, ekinlarni maqbul sug‘orish rejimini, turli suv tejamkor sug‘orish usullarini tatbiq qilish, gidromelioratsiya tizimlarida ishlatiladigan sug‘orish va zax qochirish tarmoqlari, gidrotexnika inshootlari komplekslaridan samarali foydalanish va hisoblash metodlarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini hosil qilishda xizmat qilishini o‘rganiladi.



Respublikamiz sharoitida sug‘oriladigan maydonlardan samarali foydalanish, sug‘oriladigan yerlarning unumdorligini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosili va sifatini oshirish—yerlarning meliorativ holatiga bevosita bog‘liqdir.

Hozirgi davrda, Respublikamizdagi mavjud 4,3 mln. hektar sug‘oriladigan maydonlarning 1,930 mln.hektari (44,9 foiz) turli darajada sho‘rlangan.

Jumladan, 1326,2 ming hektari (30,7 foiz) kam, 521,3 ming hektari (12,6 foiz) o‘rtalik sho‘rlangan yerlar jumlasiga kiradi.

Sug‘oriladigan maydonlarning 323,2 ming hektarida (7,5 foiz) yer osti sizot suvlari sathi qishloq xo‘jaligi ekinlarining normal rivojlanishi uchun maqbul bo‘lmagan chuqurliklarda (1,5 metrgacha) joylashgan.

Ushbu sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilab borish va yer osti sizot suvlari sathini meyor darajasida ushlab turish uchun 143 ming km. uzunlikdagi kollektor-drenaj tarmoqlari, 3787 dona vertikal drenaj quduqlari hamda 160 dona meliorativ nasos stansiyalari xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

## MELIORATSIYA NIMA?

**Melioratsiya so‘zi** – lotincha bo‘lib, yaxshilash ma’nosini beradi.

**Irrigatsiya va melioratsiyasi** – bu qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining tabiat sharoitini tubdan yaxshilash bilan shug‘ullanuvchi fan bo‘lib hisoblanadi.

Irrigatsiya va melioratsiyasi asosan tuproqning suv rejimini yaxshilash bilan shug‘ullanib, uning orqasidan suv rejimi bilan bog‘lik bo‘lgan havo, issiqlik va oziqlanish rejimini yaxshilaydi va o‘simliklar o‘sishi uchun zarur bo‘lgan sharoitni yaratadi.

Meliorativ ishlarning agrotexnik ishlardan farqi, o‘tkazilgan har bir ishning samarasi ko‘p yillar davomida olinadi.

**Misol uchun:** qurilgan sug‘orish yoki zah qochirish tizimlari, kanallar va zovurlarni vaqtida ta’mirlab, ish xolatida ushlab turilsa, ular juda ko‘p vaqtgacha yerlarni meliorativ holatini yaxshi ushlab turishadi.

**Agrotexnik ishlari:** yerni haydash, kultivatsiya qilish, o‘g‘it berish va boshqalarning samarasi ko‘pincha faqat bir yillikdir. Lekin chuqur qilib yer haydash, birlamchi ko‘p miqdorda o‘g‘it berishlar - meliorativ ishlari bo‘lib, ulardan olinadigan samara ko‘p vaqt davom etadi.

## IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYANING TURLARI

**Vazifasi bo‘yicha:**

- Sug‘orish melioratsiyasi
- Zax qochirish melioratsiyasi
- Chuchuklashtirish melioratsiyasi
- Eroziyaga qarshi kurash melioratsiyasi


**SUG'ORISH MELIORATSIYASI** – tuproqning namligini sun'iy oshirish yo'li bilan uning hosildorligini oshirishdir.




**ZAH QOCHIRISH MELIORATSIYASI** – tuproqda ortiqcha namlikni maydondan olib chiqib, uning havo, issiqlik va oziqlanish rejimini yaxshilashdir.



**CHUCHUKLASHTIRISH MELIORATSIYASI** – tuproqdagi ortiqcha tuzlarni chiqarib tashlab, ekinlar uchun yaxshi sharoit yaratib berishdir.



**EROZIYAGA KARSHI KURASH MELIORATSIYASI** – tuproqni yemirilishi va yuvilishiga qarshi kurash ishlardir.



# **IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYASINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA TURLARI**

- **GIDROTEXNIK MELIORATSIYA**
- **AGROTEXNIK MELIORATSIYA**
- **O'RMON MELIORATSIYA**
- **KIMYOVIY MELIORATSIYA**
- **MADANIY-TEXNIK MELIORATSIYA**

## GIDROTEXNIK MELIORATSIYA

Bu mahsus qurilgan gidrotexnik inshootlar - to‘g‘on, kanal, suv olgich, va boshqalar) yordamida tuproqni sug‘orish, zahini qochirish, tuz rejimini yaxshilash va har qanday yemirilish, yuvilishlardan saqlash jarayonlarini bajariladi.



## AGROTEXNIK MELIORATSIYA

Bu agrotexnik usullar bilan o‘simliklar uchun yaxshi sharoit yaratish maqsadida tuproqning tabiat sharoitini yaxshilashdir. Bularga: maxsus meliorativ yer haydashlar, tuproqning havo rejimini yaxshilashda naychalar hosil qilish, katta miqdorda bir marotaba o‘g‘it berish va boshqa agrotexnik ishlar kiradi. Ularning asosiy farqi (agrotexnikadan) shuki, ular ko‘p yillar davomida o‘zining samarasini yuqotmaydi.

## O'RMON MELIORATSIYA



Tuproqni suv va shamol eroziyasidan saqlash uchun daraxtlarni ekish, ular yordamida dalalarga yaxshi mikroiqlim yaratish, shamol tezligii kamaytirish, daraxtlar ildizi yordamida kanallar qirg'oklarini mustahkamlash va boshqalar bu turga kiradi.



## KIMYOVİY MELIORATSIYA


Tuproq tarkibiga mahsus kimyoviy moddalar kiritib, uning kimyoviy xossalari ni o‘zgartirish bilan shug‘ullanadi.

Masalan: Sho‘rtob yerlarni melioratsiya qilish, ya’ni tuproqqa undagi natriy ionini chiqarib tashlash qobiliyatiga ega bo‘lgan moddalar, misol uchun: gips kiritilganda uning xossalari yaxshilanadi. Tuproqning kislotaliligini pasaytirish uchun oxak qo‘shiladi va xokazo. Bunday moddalar-gips, oxak va boshqalar - ximmeliorantlar deb ataladi.



## MADANIY-TEXNIK MELIORATSIYA.

Bunga tuproq ustki qatlamini shox-shabbalardan tozalash, mayda tepalik va chuqurliklarni tekislash, haydaladigan qatlamdagi tosh va boshqa predmetlarni yig‘ib olish va boshqalar kiradi. Bu turga yana, tuproqlarga qum qo‘sish (qumlash) va qumli tuproqlarga og‘ir tarkibli tuproqlar qo‘sish (loylash) va boshqalar ham kiradi.



# MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

- Irrigatsiya va melioratsiyaning maqsadi nimalarni o‘z ichiga oladi?
- Irrigatsiya va melioratsiyaning vazifalarini keltirib o‘ting?
- Irrigatsiya va melioratsiyasini amalga oshirish bo‘yicha turlari nimalardan iborat?
- Irrigatsiya va melioratsiyasiga qo‘yiladigan talablar.
- Yer qurrasida sug‘oriladigan maydon ko‘lami qancha?
- Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasidagi sug‘oriladigan maydon ko‘lami qancha?
- Gidrotexnik melioratsiyasining vazifalari nima?
- Agrotexnik melioratsiyasining vazifalari nima?
- Madaniy-texnik melioratsiyasining vazifalari nima?
- O‘rmon melioratsiyasining vazifalari nima?
- Kimyoviy melioratsiyasining vazifalari nima?

**Har bir talaba o‘zining yashab turgan joyidagi melioratsiyaning turlari va vazifalari  
bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilishi va ma’lumotlarni taqdim etiladi**

№	<b>Tadbirlar nomi</b>	<b>Xudud nomlari</b>				<b>Jami</b>
		<b>Viloyat</b>	<b>Tuman</b>	<b>Suv iste’molchilar uyushmasi</b>	<b>Qishloq</b>	

**VAZIFALAR BO’YICHA**

1	Sug’orish melioratsiyasi					
2	Zax qochirish melioratsiyasi					
3	Chuchuklantirish melioratsiyasi					
4	Eroziyaga qarshi kurash melioratsiyasi					

**TURLARI BO’YICHA**

1	Gidrotexnik melioratsiya					
2	Agrotexnik melioratsiya					
3	O’rmon melioratsiya					
4	Kimyoviy melioratsiya					
5	Madaniv-texnik melioratsiva					



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



## E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!



Isayev Sabirjan  
Xusanbayevich



Irrigatsiya va melioratsiya  
kafedrasi professori



+ 998 71 237 19 56



[s.isaev@tiiame.uz](mailto:s.isaev@tiiame.uz)



@sabirjanisaev